

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI**

**NAVOIY VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY
MARKAZI**

**TA’LIM TIZIMIDA YANGI METODIKALAR
VA ULARDAN FOYDALANISHNING AMALIY
ASOSLARI**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

T O‘ P L A M I



Navoiy-2023

Ta'lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Navoiy: Navoiy viloyati PYaMO'MM nashri, 2023. 377 b.

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida tashkil etilgan "Ta'lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamida uzluksiz ta'lim tizimida tadqiqot olib borayotgan mutaxassis-olimlar, mustaqil izlanuvchilar ilmiy-nazariy izlanishlarining amaliy tadbiqlari keltirilgan. Raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish borasidagi tajribali maktab o'qituvchilarining taklif va tavsiyalari, umumta'lim fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ta'lim, fan, xalqaro aloqalar va boshqaruv faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish hamda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" Davlat dasturida belgilangan vazifalar doirasida bajarilayotgan izlanishlarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari yoritilgan.

Konferensiya materiallaridan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablari o'qituvchilari, magistrantlar va iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

TAHRIR HAY'ATI

<i>Ro'ziqulov F.R.</i>	- psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
<i>Pulotov A.M.</i>	- pedagogika fanlari nomzodi. dotsent
<i>Suvonov O.O.</i>	- kafedra mudiri, dotsent
<i>Cho'liyev E.A.</i>	- fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
<i>Xasanova Sh.B.</i>	- kafedra mudiri, dotsent
<i>Djurayeva P.S.</i>	- dotsent v.v.b.
<i>Qurbonova X.T.</i>	- katta o'qituvchi
<i>Hamdamova N.X.</i>	- katta o'qituvchi
<i>Boboqulov J.Q.</i>	- UKTTE bo'limi boshlig'i

Texnik muharrir:

Jalilov D.J.

Maqolalar mazmuni va ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas'ul.

Konferensiya materiallari to'plami Navoiy viloyati PYMO'MM Ilmiy-metodik kengashi (2023-yil 28-fevral, 2-sonli) qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH SO'ZI

Assalomu alaykum!

Aziz mehmonlar, anjuman ishtirokchilari! "Ta'lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari" mavzusidagi bugungi respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumanida, (videokonferensiyada) Siz muhtaram mehmonlar, ilm-ma'rifat ahli bilan muloqotda bo'lishni o'ta mamnuniyat bilan qabul qilaman.

Bugungi kunda dunyo taraqqiyotini ilm-fan va axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev mamlakatimizdagi ijtimoiy jarayonlar haqida ishonchli axborot berish maqsadida matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturlar tashkil etilmoqda, hayotimizdagi muammo va hodisalarga tezkor munosabat bildirilmoqda, ularning veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, mobil missenjerlardagi sahifalari yangilab borilmoqda. Bugun biz hamma sohada, jumladan, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish borasida yutuqlar bilan birga, kamchiliklar va nuqsonlar bo'lishi ham tabiiydir. Jahonda shiddat bilan davom etayotgan globallashuv, inovatsion texnologik jarayonlarning murakkablashishi va tezlashishi natijasida axborot xurujlarining inson ruhitiga tasirining mohiyatini ochib berish, insondagi o'ziga xos psixologik xususiyatlar rivojlanishini ob'ektiv aks ettirish muammosi yuzaga kelmoqda. Axborot xurujlari olam shaxsning psixologik, ijtimoiy, madaniy, axloqiy xususiyatlariga katta o'zgarishlar olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan insoniyatning xususan, yoshlarning butun dunyo bo'ylab duch keladigan asosiy muammolardan biri internetga tobelik bo'lib, o'z-o'zidan yoshlarning kundalik turmush tarziga, kasbiy tayyorgarligi va kamolotiga sezilarli darajada salbiy ta'sirini oldini olish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Axborot texnologiyalardagi taraqqiyot yoshlarimizni, o'sib kelayotgan avlod uchun yangi qirralarni ochilishiga imkon bersa-da, undan foydalanishning ham o'ziga xos muammolari mavjud. Bolalar internetdan foydalana turib yovuz niyatli odamlarga duch kelib qolmoqdalar. Internetdagi noma'lum kishi bilan muloqot ishonchli va do'stona munosabat o'rnatishga imkon yaratadi. Jinoyatchi ushbu afzallikdan foydalangan holda tajribasiz yoshlarni o'ziga bog'lab olmoqda. Siz farzandingizni interetdagi xavfdan asray olasiz, qaysiki uni tarmoqdan qanday foydalanayotganligini nazorat qila olsangiz. Jinoyatchilar bolalar bilan chatda lahzali axborotlar almashtirishda, elektron pochta yoki forumlardan foydalanib aloqa o'rnatish ustunligiga erishmoqda.

Bu esa, yoshlarda axborotni tahlil qilish kompetentsiyasini rivojlantirish va har qanday axborot xurujlariga qarshi kurashish ko'nikmasini shakllantirish ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan fidokor ustozlarimizning asosiy vazifalaridan biridir.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, keyingi vaqtlarda mamlakatimizga nisbatan axborot-psixologik tahdidlar sodir etilmoqda. Xususan, ular hozirgi zamon ommaviy axborot vositalaridan foydalanish orqali dunyoning turli hududlarida o'zlariga mos mafkuraviy muhitni shakllantirish maqsadlarini ko'zlamoqda.

Pedagogik markazimizda amalga oshirilayotgan ishlarning asosiy mazmuni bu - yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilinishini kuchaytirish, dars mashg'ulotlari sifatini yuqori darajada ta'minlashhamda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyatini ko'tarish, ta'lim ko'rsatkichlari sifatini nazorat qilish tizimini uzluksiz takomillashtirish, ta'limning ishlab chiqarish bilan integratsiyasi darajasini ko'tarish, mehnatga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish va ijro intizomiga qat'iy rioya qilishni talab etadi.

“Umumta'lim maktablari ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari va yechimlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanni maqsadi ilmiy izlanuvchilarning nazariy va amaliy tavsiyalarini, ta'lim jarayoniga xalqaro tajriba va innovatsiyalarni tadbiq etish, taklif va tavsiyalarni umumlashtirish, fanlarni o'qitishda innovatsion-pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, uzluksiz ta'limdagi mavjud uzviylikni takomillashtirishdan iboratdir.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari! Ta'lim tizimidagi innovatsion islohotlarga kreativ yondashuv, milliy ta'lim va uzluksiz malaka oshirishni hamkorlikda tashkil etishda mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish, xalq ta'limi muassasalarini dunyo reytingining yuqori pog'onalarida turadigan ta'lim muassasalari bilan raqobatlasha oladigan ta'lim dargohlariga aylantirish maqsad qilib qo'yilgan. O'ylaymanki, ushbu anjuman ham o'ziga xos tarzda muayyan maqsadlarimizni amalga oshirish, innovatsion yondashuvlar milliy ta'lim tizimini takomillashtirishning zamonaviy tadqiqotlar asosidagi munozaralar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Qadrli anjuman ishtirokchilari va aziz mehmonlar!

Shu fursatdan foydalanib, anjumanda ishtirok etayotgan hurmatli professor-o'qituvchilar, ustoz va murabbiylarga, ilmiy konferentsiyaga tashrif buyurganingiz uchun o'z minnatdorchiligimni bildirgan holda, Sizlarga mustahkam sog'lik, ilm-fan yo'lidagi xayrli ishlaringizda omadlar tilayman. Anjumanni o'z nufuzi jihatdan yuqori ilmiy saviyada samarali o'tishiga tilakdoshman.

F.R. Ro'ziqulov
Navoiy viloyati PYMO'MM direktori

hech qanday holatda oilaning vazifasini bajara olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi – T.: 1999.
2. Karimova O. Oila huquqi asoslari. – T.: 2003.
3. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi. – T.: 2006.
4. Munavvarov A.K. Oilaviy tarbiya samaradorligining pedagogik shartsharoitlari. T.: Fan.1989.
5. Munavvarov A. Q. Oila pedagogikasi – T.: O'qituvchi, 1994
6. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – T.: O'qituvchi, 1999.

O'QITIB - O'ZIMIZ HAM O'RGANAMIZ

*Ibadullayeva Sh.N.,
CH.D.P.U. o'qituvchisi,
To'rayeva J.S.,
CH.D.P.U. talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz Chirchiq Davlat Pedagogika universitetining maxsus pedagogika kafedrasida qoshida tashkil etilgan “Pedagogik desantura” to'garagi bilan tanishasiz. Siz “Pedagogik desantura” klubining maqsad va vazifalari, klub a'zolarining faoliyati, maktablarda bo'sh o'quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Аннотация: В этой статье вы узнаете о клубе «Педагогическая десантура», организованном кафедрой специальной педагогики Чирчикского государственного педагогического университета. Вам будет доступна информация о целях и задачах клуба «Педагогическая десантура», деятельности членов клуба, выявлении и работе со школьниками, являющимися безработными в школах.

Annotatsiya: In this article, you will learn about the club “Pedagogical desantura”, organized by the Department of special pedagogy of Chirchik State Pedagogical University. You will have access to information about the goals and objectives of the club “Pedagogical desantura”, the activities of club members, the identification and work with students who are idle adopters in schools.

Kalit so'zlar: “Pedagogik desantura” klubi, “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, pedagogik desant, Maxsus pedagogika kafedrasida, desant, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar, metodika, tajriba, kuzatuvchi, asisitent, moderator, fasilitator, bilim olishga yordam berish, maktabdagi pedagoglar bilan hamkorlik.

Ключевые слова: клуб «Педагогическая десантура», Закон «Об образовании», педагогическая десантура, кафедра специальной педагогики, десант, свободное освоение учащимися, методика, опыт, наблюдатель, ассистент, модератор, фасилитатор, помощь в получении знаний, сотрудничество с педагогами на школа.

Key words: "Pedagogical desantura" club, Law "On Education", pedagogical desantura, Department of Special Pedagogy, desant, free mastering students, methodology, experience, observer, assistant, moderator, facilitator, helping to acquire knowledge, cooperation with pedagogues at school.

Buyuk bobokalonimiz Abdulla Avloniyning

Emish har elg'a qadri ilm balo,
O'la ilm maqomi baski bolo.
Kishikim ilmu fandin boxabardur,
Haloyiqqa mo'tabardur.
Tiriklikda kishikim qilsa hark or,
Aning osonlig'ina ilm darkor.

Degan oltinga teng misralari yillar davomida bong urib kelmoqda. Ajdodlarimizga munosib avlod bo'lib, mustaqil yurtimizda ham ta'limga juda katta e'tibor berilib, turli xil islohotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan va Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. Ushbu qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Yangi O'zbekistonimizda Uchinchi Renessans bunyodkorlariga ta'lim-tarbiya berish hozirgi kunimizning asosiy bosh mavzularidan biridir. Bu maqsadda nafaqat pedagoglar, balki O'zbekistonning deyarli barcha qatlami yo'lga chiqqan desam, adashmagan bo'lgan. Shulardan biri, men ta'lim oladigan Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika kafedrasidir. Bu oliy ta'lim muassasasi 2017-yilda tashkil topgan. Mana shu qisqa muddat davomida o'zining faoliyati natijasida 2022-yildan boshlab universitet maqomini olishga muvaffaq bo'ldi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika kafedrasida o'qituvchisi Sh.N. Ibadullayeva tomonidan 2021-yilda "Pedagogik desantura" klubi tashkil qilindi va klubning a'zolariga "pedagogik desant" nomi ostida razm solishadigan bo'ldi. Xo'sh, desant o'zi kim? Pedagogik desant-chi? Biz birinchi navbatda yuqoridagi savollarga javob topib olsak.

Desant (fransuzcha descente-tushirish) – dushman egallagan hududda jangovar harakat qilishga mo'ljallab samolyot, vertolyot va dengiz, daryo orqali tushirilgan yoki shu maqsadda tuzilgan qo'shin.

Pedagogik desant – o'zining kasbiy mahoratini oshirgan holda maktablardagi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlaydigan, o'zlashtirishda tengdoshlaridan ortda qolgan o'quvchilarni safdoshlariga yetib olish uchun ko'maklashadigan pedagog.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son qaroriga asosan 2022-2023-o'quv yilidan boshlab pedagog kadrlar tayyorlovchi OTM kunduzgi shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida, shu jumladan darslar 4 kuni OTMda, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishi ta'minlandi. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu qaror 1-kursda tahsil olayotgan talabalarni qamrab olmagan. Aynan CHDPuning maxsus pedagogika kafedrasida tashkil etilgan "Pedagogik desantura" klubining faoliyati tufayli biz 1-kurs talabalari ham maktablarda amaliyotga chiqishga muvaffaq bo'ldik.

"Pedagogik desantura" klubi nafaqat Maxsus pedagogika kafedrasida, balki pedagogika fakultetini ham qamrab olgan, ya'ni pedagogik desantlar ichida defektologlar ham, psixologlar ham bor. Mazkur klubga a'zo bo'lish uchun bir necha bosqichli sinovlardan o'tiladi. Sinovdan o'tgachgina, klub a'zosi sifatida faoliyat yuritiladi. Men mana shunday sinovlardan o'tib, pedagogik desant nomiga sazavor bo'ldim. Hozirgi kunda 134 nafar talaba "Pedagogik desantura" klubiga a'zodir.

Klub a'zosi sifatida Chirchiq shahridagi 15-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim

maktabida shartnoma asosida o'z faoliyatimni boshladim. Klub a'zolarining asosiy maqsadi sinflardagi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlab, o'qituvchidan kerakli tajribani olishdir. Mazkur maktabda 2161 nafar o'quvchi 60 ta sinfda tahsil oladi, shulardan 1089 nafari, ya'ni 50 foizini qizlar tashkil etadi.

Men 15-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 2-"G" sinf o'quvchilari bilan sinf rahbari N.I.Hamdanova hamkorligida o'zimning universitetimdagi darslarimga xalaqit bermagan holda, ya'ni ertalabki 8:00 dan 8:45ga qadar (universitetdagi darslar 9:00da boshlanadi) birga ishladim. Shu vaqt davomida kuzatuvchi, asisitent, moderator, fasilitator kabi bosqichlarda bo'ldim.

1) Kuzatuvchi bosqichi . Bu bosqichda men haftaning har 5 kunida ertalabki 8:00 dan 8:45 ga qadar o'qituvchilarning dars o'tish jarayonlarini kuzatdim . Men bu kuzatish jarayonida sinfdagi o'quvchilar bilan tanishdim, ularning psixologiyasini o'rgandim, sinfdagi faol hamda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni aniqlab oldim. Bu sinfda 33 nafar o'quvchi ta'lim olsa, shulardan 15 nafari qizlar tashkil etadi. Bundan tashqari, o'qituvchilardan dars o'tish jarayonidagi pedagogik mahoratni , o'zini tutishni, o'quvchilarning diqqatini bir joyga jamlashni hamda dars o'tishning bir necha usullarini bilib oldim.

2) Asisitent bosqichi. Mazkur jarayonda men o'qituvchining dars o'tish jarayonida o'quvchilardan o'tilgan mavzuni so'rash hamda darsning yakunida o'quvchi mavzuni qay tarzda o'zlashtirganini bilib olish uchun turli metodikalar qo'lladim. Bunday metodikalardan biri o'quvchilardan uyga vazifani so'rash jarayonida qo'llangan " Ruchka " metodikasi:

Bu metodikada birinchi o'quvchi qo'lida ruchka ushlab, uyga vazifaga berilgan topshiriqni ayta boshlaydi (o'quvchilarga vazifa sifatida kitobdan tashqari "Zumrad va Qimmat" ertagini o'qish topshirilgan ekan). Metodika qo'llovchi pedagog o'quvchini to'xtadi, ikkinchi o'quvchiga ertakning qolgan joyidan davom ettirishni aytadi va birinchi o'quvchi qo'lida ushlab turgan ruchkasini ikkinchi o'quvchiga uzatadi. Metodika shu tarzda davom etadi. Men ham mana shu metoddan foydalandim. Ushbu metodikani qo'llash orqali nafaqat uyga berilgan topshiriqni so'rash, balki o'quvchilarni bir-birini tinglashga, diqqatini jamlashga, jamoa oldida nutq so'zlashga o'rgatishga muvaffaq bo'ldim.

3) Moderator bosqichi. Bu bosqichda men dars jarayonini o'qituvchi bilan birgalikda, galma-gal tarzda olib bordim. Moderator bosqichida o'quvchilarga qanday vaziyatda qanday muomalada bo'lishni o'rgandim Darsning boshlanish qismida o'quvchilarning diqqatini yig'ib olish uchun turli xil o'yinlar tashkillashtirdim. Bunday o'yinlardan biri: bolalarga she'r aytirib, she'rga mos harakatlarni amalga oshirishdir.

Tongda quyosh uyg'onib

Bolalarni uyg'otdi. (barmoqlar orasini ochib qo'llarimizni tepaga ko'taramiz, xuddi shu harakat bilan pastga tushiramiz)

Ko'zlarimiz uyg'ondi (barmoqlar bilan ko'zimizni ishqalaymiz)

Qulog'imiz uyg'ondi.(quloqlarimizni cho'zamiz)

Chimchiladik burnimiz (burnimizni chimchilaymiz)

Burnimiz ham uyg'ondi.

Salom, dedik quyoshga

Salom, dedik hammaga!

O'quvchilar "uyg'ongandan" so'ng dars jarayonini o'qituvchi boshlab berdi.

4) Fasilitator bosqichi. Ushbu bosqichga kelib men o'quvchilarga mustaqil dars berishga muvaffaq bo'ldim. Bu bosqichda men darsga hamma o'quvchilarning qiziqishini oshirishga harakat qildim. Darsga barcha o'quvchilarni faol qatnashishlari uchun ko'proq bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga topshiriq berdim va faol o'quvchilarni ularga yordamlashishlari uchun biriktirib qo'ydim. Dars so'ngida esa faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish maqsadida turli xil sovg'alarni (o'quv qurollari) taqdim qildim. Men bu bilan o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirdim.

Mazkur bosqichlarning har birida men bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan ishladim.

Hozirgi kunda men fasilitator bosqichida bo'lib, o'quvchilarga o'z metodikalarim orqali bilim olishiga yordamlashib kelmoqdaman.



Pedagogik desantlar tufayli bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortib, chorak baholari yaxshilanib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, "Pedagogik desantura" klubi tufayli talabalar maktablarga chiqib, o'z malakalarini oshirmoqdalar, o'qituvchilardan kerakli tajribani o'rganib, kelgusida amaliyotda qo'llashga muvaffaq bo'lishyapti. Sinflarda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan qiynalib qolgan muallimalarga pedagogik desantlarning juda katta foydasi tegmoqda. Mana shunday klublar faqatgina Chirchiq davlat pedagogika universitetida emas, balki barcha oliy o'quv yurtlarida o'zlarining yo'nalishlariga mos

ravishda tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.N.Ibadullayeva. INKLYUZIV TA'LIM - IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI IJTIMOIIY HAYOTGA TAYYORLASH // European Journal of Interdisciplinary Research and Development Volume-09 Nov. - 2022 Website: www.ejird.journalspark.org ISSN (E): 2720-5746 81-84.
2. Sh.N.Ibadullayeva. ZAIF ESHITUVCHI BOLALARNI NUTQIY JIHATDAN TAYYORLASH OLIYATINING AHAMIYATI Uzbek Scholar Journal Volume- 10, Nov., 2022 www.uzbekscholar.com 205-208
3. Sh.N.Ibadullayeva. Yorqulova Risolat Otabek qizi Eshboboyeva Iroda A'zamjon qizi Logopediya yo'nalishi talabasi Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Otaxonova Sumbula Xudayor qizi Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi Eshitishida Nuqsoni Bo'lgan Shaxslarning Muloqoti Uchun Qilinayotgan Ishlar Amalda.PERIODICA. Journal of modern Philosophy, Social Sciences and Humanitiess. ISSN NO:2720-4030 Volume 12, November, 2022 227-229.
4. Sh.N.Ibadullayeva. . Yorqulova Risolat Otabek qizi Eshboboyeva Iroda A'zamjon qizi Logopediya yo'nalishi talabasi Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Otaxonova Sumbula Xudayor qizi Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi Alohida yordamga muhtoj bolalar ota-onalarini psixologik va pedagogic jihatdan qo'llab quvvatlash. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 10, Issue 11, Nov. (2022)739-742.
5. Sh.N.Ibadullayeva Pedagogika desantura-ta'lim klasteri asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning innavotsiyon mexanizmi sifatida Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириў илмий-методикалик журнал № 6/3. Nukus 2022y.47,51.
6. Sh.N.Ibadullayeva Sh.F.Xabibullayeva R.S.Otajonova "O'ZBEKISTONDA INKLUYZIV TA'LIM" *Международный современный научно-практический журнал "Научный импульс"* № 5 (100) Декабрь 2022г. Часть 1 154,157.
7. Sh.N.Ibadullayeva O.Y.Axmadaliyeva "PEDAGOGIK DESANTURA" *Международный современный научно-практический журнал "Научный импульс"* № 5 (100) Декабрь 2022г. Часть 1151,153.
8. Sh.N.Ibadullayeva M.O'.Nuriddinova INKLYUZIV TA'LIMNING MOHIYATI *Международный современный научно-практический журнал "Научный импульс"* № 5 (100) Декабрь 2022г. Часть 1161,164.
9. Sh.N.Ibadullayeva S.E.Boqiyeva "HAR KIM O'Z TILI BILAN TIRIK" *Международный современный научно-практический журнал "Научный импульс"* № 5 (100) Декабрь 2022г. Часть 1190,192.
10. Sh.N.Ibadullayeva B.J.Bekchanova BAG'RIKENGLIK, TENGLIK, INTEGRATSIYA –"OQ QAMISH" CHELLENCHIDA *Международный современный научно-практический журнал "Научный импульс"* № 5 (100) Декабрь 2022г. Часть 2 618,621.
11. Sh.N.Ibadullayeva S.J.Muvassarova MENDAN KEYINGI 1000 QADAM SENIKI *Международный современный научно-практический журнал "Научный импульс"* № 5 (100) Декабрь 2022г. Часть 2 621,624.



Aslanova R.T., Mamurova R.T.	Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari	318
Nurmatova D.N., Ravshanova S.R.	Boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	319
Nurnazarova L.S., Tulayeva G.Sh.	Rus tili darslarida o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirishda intellektual o'yinlardan foydalanish	321
Xusanova K.M., Berdiyeva R.A.	Rus tilini fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish	323
Hamroyeva A.F.	Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning irodaviy sifatlarini tarbiyalashda harakatli o'yinlarning ahamiyati	324
Kenjayeva N.A.	Fanlararo integratsiyada, psixologiya fanlari sohalari taraqqiyoti	333
Kenesova F.	O'quvchilarda kimyo fanidan masalalar yechish ko'nikmalarini hosil qilish	334
Abilova G.O.	Vebinarlarni tashkil qilishda raqamli texnologiyalarning pedagogik jihatlari	338
Hamdamova N.X.	Boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning metodologik asoslari	340
Karimova G.Sh.	Ta'lim –tarbiya samaradorligini oshirishda, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish	342
Yusufov U.I.	Axloqiy tarbiyada jismoniy tarbiyaning ahamiyati	344
Барнаева Г.И.	Фанларни ўқитиш сифат самарадорлигини оширишда ахборот технологияларидан фойдаланишнинг услубий асослари	345
Narziyeva M.S.	Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda axborot – texnologiyalarining o'rni	348
Saidova M.N.	Ta'limda zamonaviy axborot vositalarining o'rni	349
Nurova D.Sh.	O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda AKT darslarining o'rni	351
Sheraliyeva D.A.	O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati	353
O'roqova N.N.	Zamonaviy usul va vositalarni amaliyotga joriy etishda AKT ning o'rni	357
Ismayilova D.M.	Ta'lim jarayonida yangi metodikalarni joriy etishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'rni	358
Nurqulova R.N.	Ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishda zamonaviy texnologiya AKT dan foydalanishning ahamiyati	361
Bobomurodov A., Babayeva F.	Yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari	363
Ibadullayeva Sh.N., To'rayeva J.S.	O'qitib - o'zimiz ham o'rganamiz	365



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ
ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ**



**НАВОИЙ ВИЛОЯТИ ПЕДАГОГЛАРНИ ЯНГИ МЕТОДИКАЛАРГА
ЎРГАТИШ МИЛЛИЙ МАРКАЗИ
“МАКТАБГАЧА, БОШЛАНҒИЧ ВА МАХСУС ТАЪЛИМ
МЕТОДИКАЛАРИ” КАФЕДРАСИ
“ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЯНГИ МЕТОДИКАЛАР ВА УЛАРДАН
ФЙДАЛАНИШНИНГ АМАЛИЙ АСОСЛАРИ”
РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ
АХБОРОТ ХАТИ**

Навоий вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий марказида “Таълим тизимида янги методикалар ва улардан фойдаланишнинг амалий асослари” республика илмий-амалий анжумани ўтказилади.

Анжуманнинг расмий тиллари: ўзбек, рус, инглиз ва қozoқ тиллари.

Анжуман ташкилотчилари: Навоий вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази.

Анжуманни ўтказиш жойи ва муддати: Навоий вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази, 2023 йил 21 апрел.

Анжуман ишининг йўналишлари:

1-шўба: Мактабгача ва бошланғич таълимда инновацион технологиялардан самарали фойдаланиш асослари.

2- шўба: Табиий фанларни ўқитишда инновацион технологияларнинг ўрни ва аҳамияти.

3- шўба: Таълим жараёнига педагогик технологияларни тадбиқ этишда психологик ёндашув.

4- шўба: Мактабларда инклюзив таълимни ривожлантириш.

5- шўба: Таълим жараёнига янги методикаларни жорий этишда ахборот технологияларидан самарали фойдаланиш.

Республика илмий-амалий анжуманида иштирок этувчиларнинг илмий ва илмий-услубий мақолалари қуйидаги талаблар асосида қабул қилинади:

1.Мақолалар тўлиқ 3 ва ундан юқори бет ҳажмда (шу жумладан формулалар, жадваллар, расмлар, фойдаланилган адабиётлар рўйхати ва ҳ.к.), электрон вариантда “MS Word” редакторида, “Times New Roman” шрифтида, 1,5 интервалда, Ф-4 форматида варақнинг чап томонидан 3 см, юқори ва пастидан 2 см, ўнг томонидан 1,5 см жой қолдирилган ҳолда расмийлаштирилиши ва мукамал таҳрир этилган бўлиши шарт.

2.Мавзу бош ҳарфлар билан ўртага, бир сатрдан сўнг муаллифнинг исми ва фамилияси, кейинги сатрда муаллифнинг илмий даражаси, унвони, доимий иш жойи ва лавозими кўрсатилади.

3.Илмий мақоланинг файли номи, муаллифнинг фамилияси ва иш жойи билан қўйилсин.

4.Анжуман иштирокчиларининг белгиланган талабларга мос мақолалари асосида тўплам тайёрланади.

5. Интернетда мавжуд манба ва журналлардан кўчирилган мақола ва тезислар қабул қилинмайди. Таклиф этилаётган мақола ва тезислар анжуман мавзуси доирасида бўлиши шарт ҳамда тадқиқотда долзарб муаммо ва унинг ечими батафсил баён этилиши зарур.

6.Белгиланган талабларга жавоб бермаган мақолалар анжуман материаллари тўпламига киритилмайди. Мақолада баён этилган маълумотлар, унинг илмий-назарий асосланганлиги ва услубий ёндашувлари бўйича муаллиф масъулдир.

Анжуманга тегишли материаллар 2023 йил 15 апрелгача қабул қилинади.

Анжуманда иштирок этишни хоҳловчилар мақолаларни қуйидаги манзил ва телерам номерига 2023 йил 15 апрелгача юборишлари сўралади:

Анжуманга келган мақолалар бенул чиқарилади ва сертификат билан тақдирланади, Анжуман тўплами электрон кўринишда тақдим этилади.

Кармана шаҳри, Тошкент кўчаси, 41^А-уй.

Телефон: +998 91 333 16 18, +998 91 339 01 76.

Телеграм: +998 91 333 16 18, +998 91 339 01 76.